

8-DEKABR - O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGAN KUN

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:49 (67110)
2016-yil
5-dekabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



OBUNA - 2017 TAHRIRIYATDAN QO'NG'IROQ QILYAPMIZ

Bugungi suhbatdoshimiz - Andijon viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Serobiddin Ismoilov. U kishi bilan suhbatimiz qizg'in kechdi.

- Bugungi kunda viloyatimizdagi 740 ta umumta'lim maktabida 430 765 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Joriy yilda 9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan fan olimpiadasida yuqori o'rnlarni egallagan 85 nafar o'quvchiga Xalq ta'limi vazirligining sertifikatlari topshirildi. «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida ishtirok etgan 28 nafar o'quvchimizdan 17 nafari faxrli o'rnlarni egalladi. Natijada, viloyatimiz reyting ko'rsatkichida 14-o'rindan 5-o'ringa ko'tarildi. O'quvchilarimizning erishgan yutuqlarida «Tong yulduzi» gazetasining alohida o'rni bor. Shu bois, 2017-yil obunasida ham andijonlik o'quvchilar peshqadamlikni qo'ldan berishmaydi. Negaki, «Tong yulduzi» gazetasini o'qigan har bir o'g'il-qizning bilim salohiyati oshib, dunyoqarashi kengayishiga ishonamiz.

Shavkat KAZAKBAYEV
yozib oldi

Baxtimiz Qomusi

7 Teng huquqli qilar bizni,
Konstitutsiya kitobi.
U tufayli el e'zozda,
Hadisdir har bir bobi.

Adolatni shior etib,
Ezgulikni oqlaydi.
Yomonlikka barham berib,
El tinchligin saqlaydi.

Barcha inson huquqlarin,
Belgilaydi har bobi.
Bizga Vatan darsin berar,
Qomusimiz kitobi.

Zulfiya RO'ZIMBOYEVA,
poytaxtimizning Chilonzor tuma-
nidagi 164-umumta'lim maktabining
5-sinf o'quvchisi



Aziz o'quvchilar!
«TONG YULDUZI»
gazetasiga

2017-YIL UCHUN OBUNA
mavsumi davom etmoqda!
Siz maktab kutubxonasi
yoki uyingizga yaqin aloqa
bo'limlarida obuna
bo'lishingiz mumkin.

✓ Nashr ko'rsatkichi - 198

15-modda. O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

Gulhayo 5-sinfning a'lochi qizlaridan. U tarix, jamiyatshunoslik fanlariga juda qiziqadi. Yaqinda tarix fani o'qituvchisi Konstitutsiyaga oid bilimlarini sinovdan o'tkazish maqsadida o'quvchilarga qo'shimcha uy vazifasi berdi.

OLQISH OLGAN GULHAYO

Gulhayo Konstitutsiyamizni avval ham o'qigan, u haqda ancha tasavvurga ega edi. Shunday bo'lsa-da, ko'proq bilimga ega bo'lish uchun onasiga murojaat qildi. Onasi bir necha yillardan buyon o'quvchilarga tarix fanidan saboq beradi.

Gulbahor opa yumushlarini tugatib, Gulhayoning darsxonasiga kirib kelganida, u O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'qib o'tirgan edi. Onasi qo'liga mo'jazzgina, ammo butun bir davlatimizning ramzi – Asosiy Qomusimizni oldi. Sahifalarga bir sidra ko'z yugurtirib chiqdi. Yod bo'lib ketgan bo'lsa-da, ba'zi moddalarni xotirasida qayta tikladi. So'ng Gulhayoga dona-dona qilib tushuntirib boshladi:

– Konstitutsiya – mamlakatimizning Bosh Qomusi. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan hamda rivojlangan davlatlarning tarixiy tajribalariga tayangan holda yaratilgan.

Shuningdek, ushbu hujjatdan Konstitutsiyamizda yosh avlod hayotiga oid bir necha muhim moddalar o'rin olganki, bular Bosh Qomusimizning insonparvarlik asosida yaratilganidan dalolatdir. Buning isbotini bugun barcha jabhalarda ko'rib, guvohi bo'lib turibmiz. Bu kabi yutuq va natijalarga birdaniga erishilmagan, albatta. Qizim, mamlakatimizda hukm so'rayotgan farovon hayot, sizlarning bilim olishingiz uchun yaratilgan qulay sharoitlar hamma joyda ham mavjud emas. Shuning uchun barcha yoshlar davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan bu g'amxo'rliklarga yuksak ma'naviyat va namunal o'qish bilan javob berishingiz kerak.

Navbatdagi darsda Gulhayo berilgan vazifaga javob berish uchun birinchilardan bo'lib qo'l ko'tardi. Ustozi ruxsat bergach, Konstitutsiya haqida burro-burro va mazmunli qilib gapirib berdi. Uning aniq javoblaridan sinfdoshlari qoyil qolishdi. Ustozi esa: «Yasha, vazifani puxta bajaribsan, boshqalar ham sendan o'rnak olsa yaxshi bo'lardi», deya maqtab-maqtab, unga a'lo baho qo'ydi.

Yusufjon HAMDAMOV,
O'ZMU dotsenti

Mehr-muruvvat mezonini

Konstitutsiya davlatimizning qiyofasi va nufuzini belgilab beradigan asosiy qonunimizdir! U xalq irodasi va shuurini, ijtimoiy ongi va madaniy darajasini aks ettiradi.

Zotan, uning tayyorlanishi va muhokamasida butun xalq ishtirok etadi. Bu hujjat O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. Shuning uchun ham biz shu sanani har yili bayram qilamiz.

Qomusimizga mamlakatimizning har bir fuqarosi amal qilmog'i lozim. Hatto, yurtimizga kelgan chet el fuqarolari ham unga rioya qilishlari shart!

Maktabimizda ham qabul qilingan hujjatlar, buyruqlar ana shu asosiy qonunga asoslanib tayyorlangan. Biz ham bu qonunlarga qat'iy rioya qilmog'imiz zarur. Yurtga e'tibor, maktab jihozlarini ko'z qorachig'iday asrash, o'qutuvchilarimizni hurmat qilish, bir-birimizga mehr-muruvvat ko'rsatish, a'lo xulqqa ega bo'lish, ilm cho'qqilarini egallash uchun o'z ustimizda tinmay mehnat qilish bizning asosiy shiorimiz bo'lmo'gi kerak.



bo'lish, ilm cho'qqilarini egallash uchun o'z ustimizda tinmay mehnat qilish bizning asosiy shiorimiz bo'lmo'gi kerak.

Madinabonu UMRZOQOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 91-umumta'lim maktabining 6-«V» sinf o'quvchisi

Salom, «Tong yulduzi»ning jonkuyar ijodkorlari! Men ilk bor sizlarga maqtab yo'llamoqdaman.

SEVIMLI GAZETAMGA OBUNA BO'LDIM

Mana, bir necha yildirki, qadrdon gazetamning har bir sonini qoldirmay mutolaa qilaman. Ayniqsa, tengdoshlarimning ijod namunalari miriqib o'qiyman. «Ingliz tilini o'rganamiz» sahifasi orqali chet tili bo'yicha olgan bilimlarimni mustahkamlayman. Singlim Mubina esa gazetada berib borilayotgan ertak-hikoyalarni o'qishni juda yaxshi ko'radi.

Ustozimiz Ra'no Abdusalomova bizga doim «Kelajakda ona Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan yetuk inson bo'lishni istasangiz, ota-onangizning so'zlariga quloq solishingiz, barcha fanlarni yaxshi o'zlashtirishingiz lozim», deya uqitiradilar. O'zim ingliz tili, matematika, ona tili va adabiyot fanlariga qiziqaman. Qolaversa, qishlog'imizdagi 23-bolalar musiqa va san'at maktabida ustozim Nargiza Mamanovadan fortepiano chalishni o'rganyapman.

Yaqinda onam bilan tumanimizdagi aloqa bo'limiga kirib, «Tong yulduzi»ga 2017-yil uchun obuna bo'ldik. Endi bir yil davomida qadrdon gazetam bilan birga bo'laman.

Siz-chi, aziz tengdoshim? «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldingizmi? Agar imkon topmagan bo'lsangiz, shoshiling! Vaqt juda oz qolmoqda.

Dilshoda UMIDJON qizi,
Andijon viloyati,
Qo'rg'ontepa tumanidagi
25-umumta'lim maktabining
6-«B» sinf o'quvchisi

DOIMIY HAMROHIM!

Assalomu alaykum, hurmatli qalam o'tkir «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati a'zolari!

Bolalikning beg'ubor olamiday sayr etib yurgan ijodkor o'quvchilaringizning diynomalaridan ko'ngillarni xushnud etadigan sara satrlar guldastasini tayyorlab charchamayapsizmi? Men ularni o'qib, zavqlanaman. Rangin satrlaridan ilhomlanib, mening ham dil xazinamda she'riyat uchqunlari paydo bo'ladi. Va bu uchqunlar she'rga aylanib, sevimli gazetam sahifalarida joy olishini xohlardim. Sevimli nashrimga har bir sahifasini mehr bilan o'qib borish uchun kelgusi yilga obuna bo'ldim. Gazetaning chin muxlisi sifatida barcha tengdoshlarimni «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishga chaqiraman. Qadrli va doimiy hamrohimdan yangiliklar kutib qolaman.

Shahloxon JUMANOVA,
Jizzax viloyati,
G'allaorol tumanidagi
7-umumta'lim maktabining
9-«A» sinf o'quvchisi



10-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun

Ko'nglimizni yoritgan qo'shiq

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt-najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon...

Har kuni erta tongda yangraydigan madhiyamiz bizni yangi kunga chorlab, ko'nglimizni yoritadi. Kollejda tengdoshlarim bilan birga madhiyani kuylarkanmiz, uning taronasi, so'zlari bizga qanot bag'ishlab, shu yurtga kerakligimizni, kelajagimiz, taqdirimiz va baxtimiz shu mamlakat bilan bevosita bog'liqligini sezib turamiz. 1991-yilning 10-dekabr sanasida qabul qilingan madhiyamiz mustaqilligimizning ramzlaridan biri hisoblanadi. Bu yil ushbu davlat ramzi qabul qilinganiga roppa-rosa 25 yil to'ldi. O'tgan yillar mobaynida u bizga ilhom, jo'shqinlik va baxt ulashib kelmoqda. Sportchilarimizning olimpiada o'yinlaridagi g'alabasi sharafiga madhiyamiz yangraganda, ularning yuz-ko'zlaridagi iftixor tuyg'usini ko'rib, qalbiz bir necha bor zavqqa to'lgandi.

Madhiyamiz nafaqat sport musobaqalari, balki boshqa xalqaro ko'rik-tanlov va festivallarda ham yangrashi ayni haqiqat. Biz ham mamlakat ravnaqiga o'z hissamizni qo'shib, davlat madhiyasi ostida bayrog'imizni osmon qadar ko'tarishga intilamiz.

Odina SAHOBIDDIN qizi,
Toshkent matbaa va noshirlik kollejining
1-bosqich o'quvchisi

Tinchligimiz poydevori

Bolajonlar, hademay O'zbekiston Konstitutsiyasi kunini nishonlaymiz. Bu yil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganiga 24 yil to'ladi. Sana munosabati bilan maktabingizda allaqachon bayramga tayyorgarlikni boshlab yuborgan bo'lsangiz kerak? Bugun sizlarga ayrim davlatlarning Konstitutsiya kuni, aholi qatlami haqida ma'lumot bermoqchimiz:

O'ZBEKISTON

Yurtimizda ayni damda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi. O'z tarixi, dini va irqidan qat'iy nazar, har bir millat egalari diniy marosimlari va milliy bayramlarini o'tkazish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda

qabul qilingan. Konstitutsiyamiz 6 ta bo'lim, 26 ta bob hamda 128 moddadan iborat. Mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimi joriy qilingan bo'lib, amalda 4 ta partiya – «Xalq demokratik partiyasi», «Milliy tiklanish demokratik partiyasi», «O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi» hamda «Adolat sotsial demokratik partiyasi» mavjud. Davlat boshlig'i Prezident hisoblanib, u umumsaylov yo'li orqali saylanadi. Saylovda har bir partiyadan prezidentlikka bittadan nomzod qo'yiladi. 8-dekabr dam olish kuni deb e'lon qilingan.

YAMAN

Ushbu mamlakatda asosan arablar istiqomat qilib, davlat tuzilishi unitar respublika hisoblanadi. O'z prezidentiga ega bo'lgan mamlakatning Konstitutsiyasi 1991-yilning 16-may sanasida qabul qilingan.



Amaldagi Konstitutsiyaga ko'ra, xalqqa tegishli bo'lgan hokimiyat butun hokimiyatlarning asosi hisoblanadi. Davlat boshlig'i Prezident bo'lib, keyingi muddatga saylanish huquqi bilan umumsaylov yo'li orqali 7 yilga saylanadi. Ijroiya hokimiyati Prezident va Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Yamanda ko'ppartiyaviylik tizimi joriy etilgan.



43-modda. Davlat fuqarolarining Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

«MEN – YOSH VATANPARVAR» tanloviga

BUYUK YURT FARZANDIMIZ

Vatan har bir kishining kindik qoni to'kilgan makon, tug'ilib o'sgan muqaddas joydir.

Yurti sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi. Bu shunchaki balandparvoz gaplar emas, balki dilning tub-tubidan chiqayotgan samimiy so'zlardir.

Tumanimizdagi 1-bolalar va o'smirlar sport maktabining kurash to'garigiga 4 yildan beri muntazam qatnab kelmoqdaman. Shu yillar davomida murabbiyim qo'l ostida bir qator yutuqlarga erishdim. Yaqinda dzyudo bo'yicha viloyatda o'tkazilgan musobaqada 1-o'rinni egalladim.

Vatanga bo'lgan sadoqat tuyg'usi har bir inson qalbidan barq urib turadi. Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng, yurtimizning har bir fuqarosining qalbidan shodlik, quvonch tuyg'ulari uyg'ondi.

Istiqlolning shonli yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlarimizning har biri biz uchun qadrliligi va asrlarga tatigulik.

Aziz tengdoshlar, jonajon Vatanimiz – O'zbekistonimizning buyuk kelajagi uchun o'z hissamizni qo'shaylik, vatanparvar bo'laylik!

Sherali OZODOV,
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi
7-IDUMning 7-«A» sinf o'quvchisi

BO'LAJAK ASKAR

Mening kenjatoy ukam,
Mahmadona, sho'x biram.
U bersa agar savol,
Topolmay bo'lasan lol.

– O'zing ayt-chi, ey Hakim,
Kelajakda bo'lasan kim?
Uchuvchimi, yo bog'bon,
– Yo'q, yo'q, hecham opajon.

U asta o'ylab turdi,
So'ng bir jilmayib qo'ydi.
– Men Vatanga eng sodiq,
Bo'laman jasur posbon!

Sitora ABDURAHMONOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi
63-umumta'lim maktabi o'quvchisi

JANUBIY KOREYA

Tarixi uzoq yillarga borib taqaladigan bu mamlakatning Konstitutsiyasi dastlab 1948-yilning 17-iyulida qabul qilingan bo'lib, oxirgi marta 1987-yilda qayta ko'rib chiqilgan. 17-iyul sanasi milliy bayram sifatida nishonlanadi, lekin dam olish kuni deb e'lon qilinmagan. Konstitutsiya 130 moddadan iborat bo'lib, davlatni Prezident boshqaradi. Davlatda ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi hamda sud hokimiyatlari joriy etilgan. Prezident amaldagi qonunlarni joriy etish bilan birga, parlament roziligi bilan Bosh vazir hamda vazirlarni tayinlash huquqiga ega. Prezident 5 yil muddatga saylanish huquqiga ega bo'lib, prezidentlikka nomzod bir marta qo'yiladi va muddat tugagach, u qayta saylanmaydi.



Internet manbalari asosida Ozoda TURSUNBOYEVA tayyorladi



49-modda. Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab, asrashga majburlar.
Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.

KELING, tinchlikdan so'zlaylik!

Umrimning eng gullagan bahori bo'lgan bolaligimni sog'inib yashayman. Bobom bilan tog'ning uzundan uzoq so'qmoq yo'llarida kezib, hayot darsini o'tadim.



Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari bo'lgan hamqishloqlarim Shoto'r bobo, Hakim chol Toshboyev, Tohir Rahmonovning mahzun suhbatlari meni katta odamga aylantirdi. Shoto'r ota urushda o'ng qo'lini tashlab qaytgan. Tohir Rahmonov esa ikki ko'zidan ayrilgan. Hakim cholning dardi ichida, bobomning aytishicha, u nemisga asir tushgan ekan. Shuning uchun bo'lsa kerak, urush haqida lom-mim demasdi. Uning shunday bir dardchil so'zi bor edi: «Xudo u kunlarni hatto dushmaningga ham ko'rsatmasin». Toshboyev o't-olov ichida kezib yurganlari haqida kuyinib gapiradi. O'shanda bobomning o'n olti yoshga to'lgan Sulaymon ismli akasini ham urushga olib ketishgan ekan. Toshboyevning aytishiga qaraganda, «Tog' yigiti qoruvli bo'lgani uchun uni urushning oldingi safiga qo'shib qo'yishdi. Sulaymon hali yosh bola edi. Yomg'irdek yog'ilayotgan o'qlarni ko'rib, yuragi yorilib o'ldi...» Shoto'r ota urushni la'natlab deydi: «Dushman mo'ri-malax kabi hisobsiz edi. Odam har qadamda tutdek to'kilib borardi... Keling, tinchlikdan so'zlaylik!» Birdan hushyor tortaman. Ko'z oldimda bahori erta xazon bo'lgan, orzulari bir jahon Sulaymon gavdalanadi. Urushda ikki ko'zidan ayrilgan Tohir boboning tinchlik dunyodagi eng bebaho ne'matligini aytishdan tolmassdi. Tinchlik, bu so'z urush ko'rgan chollar davrasida xotiramda muhrlanib qolgandi. Ayni damda ham uning qanchalar zalvorililigini his qilaman. Osmonda uchib ketayotgan oppoq qushlarga tikilib:

Tilagim shu: urishqoqlarning, Urush degan tili kesilsin. Moviy rangli osmonim uzra, Quyosh mang'u nur sochib tursin! – degim keladi.

AXTAMQULI

BILIMDONLAR DAVRASIDA

Yaqinda poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 131-umumta'lim maktabida «Tong yulduzi» kunlari bo'lib o'tdi.

Muloqot chog'i o'quvchilar orasida ko'plab iqtidor egalari borligiga amin bo'ldik. Jumladan, 9-«A» sinf o'quvchisi Firdavs va uning ukasi 7-«B» sinf o'quvchisi Farrux Habibullayevlar o'tgan o'quv yilida matematika fani bo'yicha o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida g'olib chiqib, shahar bosqichida ishtirok etishgan. Taekvando bo'yicha jigarang belbog' sohibi Behruz Teshaboyev 4-«A» sinfida o'qiydi. U yaqinda Namangan viloyatida o'tkazilgan bellashuvda muvaffaqiyatli ishtirok etib, murabbiyi Zafar akaning ishonchini oqladi. 7-«B» sinf o'quvchisi Marjona Qilicheva esa rus tili fanidan «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida 1-o'rinni egallagan.



N.SULTONOV olgan surat

O'quvchilar orasida sport bilan yaqin do'st tutinganlari ham talaygina ekan. Jumladan, Muborak va Muslima Muhiddinova – gimnastika, Shomuhammad Jalolov va Kamron Mansurov – taekvando, Dildora Ahmadxo'jayeva – shaxmat-shashka, Ibrohim Hojiakbarov bilan Izzat Ahmadjonov esa boks bo'yicha musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritganlarini eshitdik. Maktabda «Yosh musavvir» to'garagi tashkil etilgan bo'lib, tasviriy san'atga ixlosmand o'quvchilar orasida Iroda Hamidulayeva, Shahnoza Ergasheva, Munisa Bahodirovaning chizgan rasmlari e'tiborimizni jalb etdi.

«Tong yulduzi»ning «Ingliz tilini o'rganamiz» sahifasini tayyorlovchi Dinora Abdullajonovaning o'quvchilar bilan qilgan muloqoti ayniqsa, qizg'in kechdi.

Maktabdan qaytar ekanmiz, qulog'imiz ostida bolajonlarning quvnoq kulgulari, ijro etgan sho'x qo'shiq, she'rlari hamon jaranglab turardi.

**D. HOTAMOVA
J. ABDULLAYEV**

«Bolalik dunyosi – 2016» V xalqaro ko'rgazmasi

BARCHASI FARZANDLAR UCHUN

Shahzod XALILOV Toshkent shahri, Mirobod tumanidagi 31-umumta'lim maktabining 4-«D» sinf o'quvchisi. U, mana bir necha yildirki, taekvandoning (WTF) turi bilan muntazam shug'ullanadi.

Yaqinda poytaxtimizdagi «O'zkespomarkaz» binosida tashkillashtirilgan «Bolalik dunyosi – 2016» V xalqaro ko'rgazmasiga oyisi Gulyora opa bilan borgan tengdoshingiz olam-olam taassurotlar bilan qaytdi. Tadbirda Shahzodga ayniqsa, sport anjomlari namoyishi manzur bo'ldi.

«O'zkespomarkaz» majmui va «Expo Pozition» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan o'tkazilgan ushbu tadbirda mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan bir qatorda Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Rossiya, Fransiya, Hindiston

kabi mamlakatlarning ilg'or tadbirkorlari o'z mahsulotlari bilan ishtirok etdi. Ko'rgazmada bolalar uchun turli o'yinchoqlar, gigiyenik vositalar, vitamin hamda dori-darmonlar, oziq-ovqat va kiyim-kechak mahsulotlari namoyishi o'tkazildi.

– Bugungi globallashuv davrida farzandlarimizni turli yot g'oyalar ta'siridan asrash oldimda turgan eng muhim vazifalardan biri, desam aslo mubolag'a bo'lmaydi, – deydi poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 109-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Farida Ermuhammedova. – Ayrim yovuz niyatli insonlar yosh avlod ongini zaharlash maqsadida o'yinchoqlar, ular tomosha qiladigan mult-

film va musiqalardan samarali vosita sifatida foydalanishmoqda. Bu esa har birimizni jiddiy o'ylashga, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashga undaydi. O'yaymanki, bu kabi ko'rgazmalarning tez-tez o'tkazilishi, yoshlarimiz uchun har tomonlama foydali bo'ladi.

Tadbir doirasida, shuningdek, bolalar uchun turli anjumanlar, modalar namoyishi uyushtirilib, kitoblar, davriy nashrlar haqida atroflicha ma'lumotlar berildi.

– Ushbu ko'rgazmaga ustozimiz bilan birga keldik. Menga ayniqsa, bayram sovg'alari juda manzur bo'ldi. Gazeta va jurnallar haqidagi ma'lumotlar esa bilimimni boyitishga xizmat qildi, – deydi poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 109-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi Sirojiddin Ibrohimov.

«Bolalik dunyosi – 2016» V xalqaro ko'rgazmasi yakunlangan bo'lsa-da, bolalarimizning tadbirdan olgan taassurotlari ular xotirasida hali uzoq vaqt saqlanib qolishiga shubha yo'q.

Sa'dullo TURSINOV

Article 50. All citizens shall protect the environment.

PRONOUN (Olmosh)

Olmosh deb ot va sifat o'rnida ishlatiladigan so'zlarga aytiladi.

Kishilik olmoshi	Egalik olmoshi Sifati - oti	O'zlik olmoshi
Birlik I He She It	Birlik My mine His his Her hers Its its	Birlik Myself Himself Herself Itself
Ko'plik We You They	Ko'plik Our ours Your yours Their theirs	Ko'plik Ourselves Yourselves Themselves

For example: Where is **my** red pencil? This is not **my** pencil, **mine** is blue. Be careful! Don't cut **yourself**.

O'zbek tilida egalik olmoshlari tushib qolib, ularning o'rnida egalik qo'shimchasi yoki o'zinning, o'zingning, o'zining, o'zimizing, o'zingizning, o'zlarining olmoshlari bilan berilishi mumkin, lekin ingliz tilida egalik olmoshlari hech qachon tushib qolmaydi yoki boshqa narsa bilan almashtirilmaydi.

I have broken **my** pen. – Men ruckkamni sindirib qo'ydim.

They gave us **their** books. – Ular kitoblari-ni bizga berishdi.

O'zlik olmoshlari eganing ish-harakatini o'zi bajarganligini ta'kidlash uchun egadan keyin yoki gapning oxirida ishlatiladi:

I saw it **myself**. I **myself** saw it. – Buni men o'zim ko'rganman.

Your teacher **DINORA**

SIMPLE ARITHMETIC (Oddiy arifmetika)

Add one or more letters before the word one to get the word defined.


- c + one** = something that holds ice cream
- b + one** = part of a skeleton
- ? + one = no longer here
- ? + one = accomplished; finished
- ? + one = without anyone else present
- ? + one = a musical sound
- ? + one = a rock
- ? + one = a geographical region or area
- ? + one = a chair for a king or queen
- ? + one = an instrument for talking to someone far away.



Mahbuba TEMIROVA, English teacher of school №43 in G'ijduvon district, Bukhara region

WHAT IS THE WEATHER LIKE TODAY? (Bugun havo qanday?)

- How is the weather today? – Bugun havo qanday?
- It is fine weather today. – Bugun havo yaxshi.
- It is windy today. – Bugun shamol esyapti.
- It is hot today. – Havo issiq.
- It is warm (cold) today. – Bugun havo iliq (sovuq).
- The weather will change. – Havo o'zgaradi.



- It is warmer today than it was yesterday. – Bugun kechagidan issiqroq.
- It was cooler yesterday than it is today. – Kecha bugungidan sovuqroq edi.
- February was warmer than January. – Fevralda yanvardan ko'ra issiqroq edi.
- Don't forget to put on your warm coat. – Issiq kiyimingizni kiyishni unut-mang.
- Don't forget to take your umbrella. – Soyabon olishni unut-mang.
- What is the weather forecast for tomorrow? – Ertaga ob-havo qanday ekan?
- It's going to rain tomorrow. – Ertaga yomg'ir yog'adi.
- It'll be bright and sunny. – Ertaga havo ochiq bo'ladi.
- What is the temperature today? – Bugun harorat necha daraja?
- What is your favorite season? – Sevimli fasingiz qaysi?
- It is pleasant to play tennis in such weather. – Bunday havoda tennis o'ynash yoqimli.

Dono AHMEDOVA

AMAZING WORDS (Ajoyib so'zlar)

Translate these words into English and find what kind of words they are:

- Qovoq
- Alla
- Aka
- Arra
- Amma
- Non
- Ko'k
- Tut
- Kiyik
- Ikki



Painters: YOQUBBEK and SUMBULA

Sarvinoz NAZAROVA, the pupil of lyceum under Uzbek State World Languages University

65-modda. Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Joldasboy NURULLAYEV

VATANIM BOLASIMAN

Men – otamning bolasi,
Men – Vatanning bolasi.
Men – onamning erkasi,
Ko'zining oq-qorasi.

Orol bo'yi makonim,
Men Amuning o'g'liman.
To'lib-toshgay Orolim,
Yuragi o't-cho'g'liman.

Sohibqiron nasliman,
Qutlug' yo'ldan ketaman.
Anglab yetdim aslim men,
Maqsadimga yetaman.

Ulg'ayib men elimga,
Halol xizmat etaman.
Surur solar ko'nglimga,
Go'zal baytlar bitaman.

Amir Temur bobomning,
Ruhi bizga yor bo'lgay.
O'zbekiston – Vatanim,
Mangu obod, bor bo'lgay.

YOMG'IR

Ko'm-ko'k, tiniq osmonni,
Qopladi qalin bulut.
Yashin ko'chib shu zamon,
Chaqmoq chaqib yoqdi o't.

Guldiragan tovushdan,
Bulut qati so'kildi.
Dur-marvarid tomchilar,
Ona yerga to'kildi.

Qoraqalpoq tilidan
Ochil TOHIR tarjimasida



NOMING AYTSAM, UYG'ONAR YURAK

Vatan tuyg'usini tuymagan odam,
Ona mehrini ham tuymaydi aslo.
Uning nomin aytsang, uyg'onar yurak,
Vatan qorachiqda erur jobajo.

Vatan uchun jon fido qilganlar bisyor,
U yashaydi yuraklarda mangu ustuvor.
Men sevaman sening har bir xor-u xasingni,
Aziz yurtim dunyodasan o'zing betakror.

Jamila ABDUSATTOROVA,
poytaxtimizdagi 274-umumta'lim maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi

Oy yuzli qizaloqsan

Oq qizim, oppoq qizim,
Yuzlari ol, qirmizim.
Zulfizarim, azizim,
Sen bilan yorug' yuzim.

Hali yosh, shoshqaloqsan,
Shirinso'z, qaqildoqsan.
Oy yuzli qizaloqsan,
Kelajagim, yulduzim.

Doim ogoh, hushyor bo'l,
Yurt koriga tayyor bo'l.
Buloqdek beg'ubor bo'l,
Munisam, shirin so'zim.

Suyuklisan ko'ngilga,
Zavq berasan har dilga.
O'xshaysan atirgulga,
Oq qizim, oppoq qizim.

Abdulboriy ZIYODOV

O'zbek elin tumori

Bilsang agar tarixin,
Tuproq'ini ko'zga surt!
Bir so'z bilan ta'rifi,
Olloh nazar etgan yurt!

Jasoratli qalbi bor,
O'xshashi yo'q xalqi bor.
Farzandlari baxtiyor,
Olloh nazar etgan yurt!


Unib chiqqay eksang xas,
Jannatdayin muqaddas.
Bu shunchaki yurt emas,
Olloh nazar etgan yurt!

O'zbek elin tumori,
Osmono'par minori.
Tutgay dilni xumori,
Olloh nazar etgan yurt!

To'y-u bayram har joyda,
Davron surur tinch uyda.
Do'stim, yana ayt qayda,
Olloh nazar etgan yurt!

Iftixorim Istiqlol,
Bugun unga dunyo lol.
Topar kundandun kun iqbol,
Olloh nazar etgan yurt!

Shohsanam ERGASHEVA,
Andijon viloyati, Asaka shahri
pedagogika kolleji o'quvchisi



SEN MENING ONAMSAN

Bag'ringda tug'ildim, o'sdim, ulg'aydim,
Tetapoya bo'ldim, yurdim, yugurdim.
Senga bo'lgan sevgim yurakka o'ydim,
Onam ko'zlarida mehringni ko'rdim.

Zilol suvlaringdan ichib to'ymadim,
Tuproq'ingni quchib, o'pib to'ymadim.
Senga yomonlikni ravo ko'rmadim,
Bag'ringda yomonlik g'amlar ko'rmadim.

Sen mening onamsan, singlimsan, Vatanim,
Labimdagi kulgu, tilimda bolim.
Qalbinga jo bo'lgan ayoqni quvib,
Muhabbat uyg'otgan go'zal bahorim!

Gulnoza ODILOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob
kasb-hunar kolleji o'quvchisi

Serquyosh o'lkam

Viqor bilan turar tog'larim,
Mevalari asal, bog'larim.
Mehnatsevar, go'zal qizlari,
Mening o'lkam erur serquyosh.

Ariqlarda oqar suvlari,
O'sma qo'ygan qizlari suluv.
Yigitlari o'ktam, g'ururli,
Mening o'lkam go'zal, serquyosh...

Bayrog'ing hilpirar yuksakda doim,
O'n ikki yulduz yarqiroq oying.
Senga madadkoridir yolg'iz Xudoyim,
Mening Vatanimdir, tengsiz serquyosh.

Diyoza ERGASHEVA,
Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi
12-umumta'lim maktabining
5-sinf o'quvchisi

Mo'min muallimning maktabi

Mo'min amaki salkam ellik yil maktabda o'quvchilarga tarix fanidan saboq bergan. Nafaqaga chiqqan ustoz hech bo'sh o'tirmaydi.

U kishining uyida rostdana sinfga o'xshagan alohida xonasi bor. Uzoq yillik ish faoliyati davomida to'plagan qo'llanmalar-u kitoblari o'sha yerdan. Hatto mo'jazgina doskasi ham bor. Endi hammamizga ibrat bo'ladigan mavzuga yaqinlashdik. Mamlakatimiz hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan sanalarda ustozning barcha farzandlari, nevara-yu chevaralari katta hovliga yig'ilishadi. Kattalarni bilmadim-ku, nabiralar bobosinikiga kelayotganda alohida tayyorgarlik ko'rishadi.

Konstitutsiya bayrami arafasida ham har doimgidek hovli mehmonlarga to'ldi. Biroz gaplashib o'tirgach, muallim odatiga ko'ra, turli sinflarda o'qiydigan nabiralarni o'zining xonasiga taklif qildi. Bobosining Konstitutsiyaga oid beradigan savollariga bolalar puxta hozirlik ko'rib kelishgandi.

Bobo odaticha, ularning maktabdagi o'qish-

lari, yutuqlari haqida so'radi.

– Bolalarim, – dedi ustoz deraza pardasini yorug'lik ko'proq kirsindan ochib qo'yarkan.

– Men Qomusimizdagi milliy qadriyatlar, o'zbekona o'ziga xoslikni mujassam etgan moddalardan birini ko'z oldimga keltirdim. Oilani mustahkamlashda uning xizmati beqiyos. U qaysi modda ekan, kim ay-tadi?

Bolalar birma-bir javob bera boshlashdi. Asta-sekin hovli ularning chug'ur-chug'uri bilan to'la boshladi.

– Bobojon, – dedi Xurshida o'rnidan astaturarkan. – Siz, menimcha, O'zbekiston Konstitutsiyasining XIV – «Oila» bobidagi 66-modda haqida o'ylagan bo'lsangiz kerak. Unda: «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar», deb belgilab qo'yilgan.

O'sha kuni to'qsonga yaqinlashib qolgan ustozning navbatdagi bergan sabog'i bir umr nabiralar qalbida muhrangan qoldi.

Yusuf ABDULLAYEV



(Hikoya)



Yaqinda
Mirzo Ulug'bek
 nomidagi O'zbekiston
 Milliy universiteti sport
 zali binosida karate bo'yicha
 O'zbekiston kubogi uchun
 saralash musobaqasi
 bo'lib o'tdi.

G'OLIBLAR ANIQLANDI

Turnir «Yosh kuch» karate sport klubi va Olmazor tumani madaniyat va sport ishlari bo'limi tashabbusi bilan tashkil etildi.



– Musobaqani o'tkazishdan maqsad bolalar sportini rivojlantirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, – deydi «Yosh kuch» karate sport klubi prezidenti Foziljon Xudoynazarov. – Turnirda 5 yoshdan 18 yoshgacha va undan yuqori bo'lgan yoshlar o'z mahoratini sinovdan o'tkazdi. Sirdaryo, Farg'ona, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridan qatnashgan o'g'il-qizlar murosasiz kurash olib bordilar. Hakamlar N. Abdullayev, F. Muhammadov, A. Qosimov va murabbiylar F. Xudoynazarov, D. Qurbonboyev, A. Ahmedov, J. Qobilovlarning fidoyiliklari sabab musobaqa shukhi yanada ortdi.

Bellashuvlar yakunida g'olib va sovrin-dorlarga medal va diplomlar topshirildi.

Abdulaziz HAMIDOV,
 poytaxtimizning Olmazor tumanidagi
 243-umumta'lim maktabining
 5-«A» sinf o'quvchisi

Mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirish, ayniqsa, xotin-qizlarni ommaviy tarzda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga jalb etish keng tus olmoqda.

B EGOYIMLAR BELLASHUVI

Nafis xilqat egalari mos turlardan biri badiiy gimnastika bugungi kunda viloyatlarning chekka hududlarida ham ommalashishga ulgurgan.

Yurtimizda qizlarni sportga jalb etish ko'rsatkichi 2005-yilda 24 foizni, jumladan, qishloq joylarda 22 foizni tashkil etgan bo'lsa, endilikda qizlarning 47 foizi, qishloqlarda 44,7 foizi sport bilan muntazam shug'ullanmoqda. Xotin-qizlar o'rtasida sport murabbiylari tayyorlash borasida tumanlarda pedagogika kollejlari qoshida jismoniy tarbiya yo'nalishlariga qabul kvotasi oshganligi, O'zDJTda qizlar sportini rivojlantirish yo'nalishiga yuzlab talabalarining qabul qilinishi so'zimiz isbotidir. Deyarli har oyda qizlar o'rtasida o'tkazilayotgan musobaqalar bu borada amaliy ishlar samarasidan darak beradi.

Yaqinda bo'lib o'tgan «Gimnastika barcha uchun» an'anaviy musobaqasida Toshkent shahri va viloyatidan 350 ga yaqin sportchi-qizlar g'oliblik uchun bellashdi. Musobaqa ishtirokchilari orasida gimnastika bilan muntazam shug'ullanayotgan sportchilar bilan birga maktab o'quvchilari, uy bekalari, korxonalar va tashkilotlar xodimlari jamoa bo'lib, tayyorlagan kompozitsiyalar ijro mahorati, raqs va gimnastika elementlarini bajarish qobiliyati bo'yicha baholandi. Ajoyib chiqishlari bilan barchani hayratga solgan Bekobod shahri jamoasi musobaqa g'olibi deb e'lon qilindi.

Zarnigor MUSAYEVA



SPORTSEVAR DUGONALAR MIZ

Hozirda biz yoshlarga barcha sharoitlar yaratib berilgan. Sportga bo'lgan havas meni «Shotokan karate do» turi bilan jiddiy shug'ullanishga undadi.

Musobaqalar oldidan hayajonlansam, ustozimning daldasi, onajonimning duolari meni g'alaba sari yetaklaydi. Shu yil avgust oyida Mustaqilligimizning 25 yilligiga bag'ishlangan musobaqada ikkita oltin medal oldim. Noyabr oyida o'tkazilgan «Yoshlik kubogi»da 1-o'rinni qo'lga kiritdim. Men sport bilan shug'ullanibgina qolmay, ingliz tilini o'rganishga ham vaqt topaman, she'rlar yozishga qiziqaman. Kelajakda jahon chempioni bo'lishni maqsad qilib qo'yganman.

Dugonam Nargiza Erkinboyeva tumanimizdagi 41-umumta'lim maktabining 8-sinfida o'qiydi. U ham sportga mehr qo'ygan o'quvchilardan. Hozirgacha nafaqat viloyat-respublikada, balki xalqaro musobaqalarda ham faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Dugonam bilan birga mashg'ulot o'tkazib, raqibga qaratilgan zarbalarni to'g'ri va xatosiz bajarish uchun bir-birimizga yordam beramiz. Nargiza 2009-yil, men esa 2010-yildan buyon murabbiyimiz Alisher aka Qurbonovdan sport sirlarini o'rganib kelmoqdami. Dugonam Nukus shahrida, poytaxtimizda o'tkazilgan musobaqada faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Oktyabr oyida esa Turkiyada bo'lib o'tgan musobaqada 3-o'rinni qo'lga kiritib, davlatimiz bayrog'ini ko'tarish baxtiga erishdi.



Nargizaning orzulari ushalib, u kabi O'zbekistonimiz dovrog'ini dunyoga tanitishga bel bog'lagan o'g'il-qizlar safi kengayaversin.

Maryamjon RAJABOVA,
 Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 20-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

Kunlarning birida sayr qilib yurgan tipratikanning ustiga bir dona barg tushib qoldi. Ajabki, barg o'z jilosini yo'qotib, rangi sarg'aygan edi. Uning nima sababdan sarg'ayib qolganini bilishga qiziqqan kirpi bargni ignasiga ilgancha o'rmonga yo'l oldi.

MULTIMEDIALI OCHIQ DARS

Sinf xonasidagi barcha o'quvchilarning nigohi ekranga qaratilgan. Bolajonlar voqeaning davomi qanday yakun topishini intiqlik bilan kuzatishadi.

Qahramonimiz yo'lda yong'oq yig'ib yurgan olmaxonni uchratib, undan kuzda barglar nega sarg'ayishi sababini so'radi. Olmaxon esa kuzda barglarning sovuqdan kasal bo'lib, sarg'ayib qolishini aytdi. Lekin bu javobdan tipratikanning ko'ngli to'lmadi. U yo'lida davom etdi. Tulki-ga ro'para kelgan tipratikan boyagi savolini berdi. Tulki barglar uning mo'ynasi rangi kabi ekanligi, u barglarning sarg'ayishi unga bog'liqligini aytdi. Savoliga qoniqarli javob topolmagan kirpivoy daraxt shoxida o'tirgan ukkiga ko'zi tushdi. Tipratikanning savoliga ukki shunday javob berdi: barg oddiy bo'lib ko'rinsa-da, lekin murakkab tuzilgani, uning sirtida son-sanoqsiz inlarda pigmentlar joylashgani, ularning ayrimi sariq, ayrimlari yashil bo'lib, ya'ni yozda yashil, kuzda sariq pigmentlar inidan chiqib, barglarning rangi o'zgarishini tushuntirdi. Tipratikan ukking javobidan qoniqqanday bo'ldi. Lekin o'zining fikrini ma'qul deb topdi.

Ekranda «Barglar nega sarg'ayadi?» ertagini tomosha qilgan shirintoylar ertak yakunida «Bilag'on», «So'zdan marjon tuzamiz» mashqlaridagi faolliklari, savollarga lo'nda, puxta va aniq javoblaridan ustoz mamnun bo'ldi. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabi muallimasi Dilnoza Narzullayevaning 2-«B» sinfida «O'qish» fanidan, Muhabbat O'rinboy qizining «Barglar nega sarg'ayadi?» mavzusida tashkillashtirilgan multimedial ochiq dars bolajonlarning tabiatga bo'lgan mehr-muhabbatini uyg'unlashtirib, uni asrab-avaylashni dillariga joyladi.

Xurshida SULAYMONOVA

